Xulosa. Markaziy Osiyo mutafakkirlarining boshqaruv masalalaridagi nazariy qarashlari bugungi kunda ham dolzarbligini yo‘qotmagan. Abu Nasr Forobiy, Ibn Sino, Bahouddin Naqshband, Alisher Navoiy kabi buyuk allomalar o‘z davrida boshqaruvning ma’naviy-axloqiy, ilmiy va ijtimoiy asoslarini chuqur o‘rganib, ilg‘or g‘oyalarni ilgari surganlar. Ularning qarashlarida rahbar – bu nafaqat buyruq beruvchi, balki xalq xizmatida bo‘ladigan, adolatli, bilimdon, mas’uliyatli va xalq manfaati uchun harakat qiladigan shaxs sifatida talqin etiladi. Bu yondashuvlar zamonaviy boshqaruv konsepsiyalari, jumladan, demokratik boshqaruv, xizmatkor liderlik, axloqiy liderlik va strategik menejment tamoyillariga hamohangdir. Ushbu tarixiy fikrlar nafaqat ilmiy-nazariy meros sifatida, balki hozirgi rahbarlar uchun amaliy qo‘llanma vazifasini ham bajara oladi. Ular orqali boshqaruvga doir milliy modelni shakllantirish, ma’naviy asoslangan boshqaruv tizimini rivojlantirish imkoniyatlari mavjud. Shunday ekan, bu qarashlarni chuqur o‘rganish, targ‘ib qilish va ta’lim tizimida keng qo‘llash hozirgi zamon talabi hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). Forobiy, A.N. Fozil shahar ahli haqida. Toshkent, G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot, 1993, 240-bet.
(2). Muhammadiyev, A. Sharq mutafakkirlari ijtimoiy-siyosiy qarashlari. Toshkent, “Fan”, 2005, 180-bet.
(3). Ibn Sino, A.A. Kitob ush-shifo (Siyosat ilmi bo‘limi). Toshkent, “Yangi asr avlodi”, 2004, 156-bet.
(4). Salohiddinov, A. Ibn Sino merosi va hozirgi davr. Buxoro, “Ilm ziyo”, 2018, 128-bet.
(5). Komilov, N. Bahouddin Naqshband. Ma’naviyat va rahbarlik. Toshkent, “Ma’naviyat”, 2011, 112-bet.
(6). Navoiy, A. Mahbub ul-qulub. Toshkent, G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot, 1999, 312-bet
(7). Rasulov, M. Navoiy siyosiy-falsafiy qarashlari. Samarqand, “Zarafshon”, 2020, 134-bet.

Xidirova Dildora Zayniddinovna (Qarshi davlat Texnika universiteti dotsenti, PhD)

GNOSEOLOGIK YONDASHUV TA’LIM JARAYONINI RIVOJLANTIRISHNING MUHIM OMILI SIFATIDA

Annotatsiya. *Bugungi kunda insoniyat hayotida zamonaviy ta’limning asosiy maqsadi – jamiyat va davlat uchun har tomonlama rivojlangan, jamiyatga, mehnat faoliyatiga ijtimoiy moslashuvchan, o‘z ustida ishlay oladigan barkamol, ma’naviy yetuk shaxslarni tayyorlashdan iborat. Demak, har tomonlama rivojlangan shaxs tarbiyasida pedagoglarning gnoseologik-kompetentlik darajasi muhim ahamiyatga ega.*

Kalit so‘zlar: *pedagoglar, gnoseologiya, kompetentlik, kadr, zamonaviy, kasbiy, bilim, ta’lim, tarbiya.*

Хидирова Дилдора Зайниддиновна (доцент, Каршинский государственный технический университета, PhD)

ЭПИСТЕОЛОГИЧЕСКИЙ ПОДХОД КАК ВАЖНЫЙ ФАКТОР РАЗВИТИЯ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОГО ПРОЦЕССА

Аннотация. *Сегодня главная цель современного образования в жизни человека – подготовить для общества и государства всесторонне развитую, духовно зрелую личность, социально адаптированную к обществу и труду, умеющую работать над собой. Поэтому уровень эпистемологической компетентности педагогов важен в воспитании всесторонне развитой личности.*

Ключевые слова: *педагоги, эпистемология, компетентность, кадры, современный, профессиональный, знания, образование, воспитание.*

Khidirova Dildora Zayniddinovna (Associate Professor Karshi state technical university, PhD)

GNISEOLOGICAL APPROACH AS AN IMPORTANT FACTOR IN THE DEVELOPMENT OF THE EDUCATIONAL PROCESS

Annotation. *Today, the main goal of modern education in human life is to prepare well-rounded, spiritually mature individuals for society and the state, who are socially adaptable to society and labor activity, and who can work on themselves. Therefore, the level of epistemological competence of educators is of great importance in the upbringing of a well-rounded individual.*

Key words: *pedagogues, epistemology, competence, personnel, modern, professional, knowledge, education, upbringing.*

Kirish. Bugungi kunda insoniyat hayotida zamonaviy ta’limning asosiy maqsadi – jamiyat va davlat uchun har tomonlama rivojlangan, jamiyatga, mehnat faoliyatiga ijtimoiy moslashuvchan, o‘z ustida ishlay oladigan barkamol, ma’naviy yetuk shaxslarni tayyorlashdan iborat. Demak, har tomonlama rivojlangan shaxs tarbiyasida pedagoglarning gnoseologik-kompetentlik darajasi muhim ahamiyatga ega. Pedagogika fanida psixologik-pedagogik kompetentlik tushunchasi pedagogning ta’lim-tarbiya jarayonida eng yuqori darajada natijaga erishishi, yuqori kasbiy salohiyat, shuningdek, muloqotchanlik va ijobiy fazilatlarga ega

bo‘lish degan xulosaga kelinadi. “Kompetentlik” so‘zining ma’nosi xabardorlik, obro‘, o‘z sohasi bo‘yicha keng qamrovli tushuncha va tajribaga ega bo‘lish bilan belgilanadi. Kompetensiya – shaxsiy sifat bo‘lib, turli xil vaziyatda pedagogik faoliyat va ijtimoiy hayotda ifodalanadigan qobiliyat, bilim, ko‘nikma va malaka hisoblanadi. Ta’lim va tarbiya jarayoni o‘sib kelayotgan yosh avlodni jamiyat talablarini o‘zida aks ettiruvchi ijtimoiy gnoseologik buyurtma asosida hayotga tayyorlashdan iborat. Ta’lim va tarbiya jarayonida yoshlar ajdodlar tomonidan to‘plangan bilim, odob, urf-odat, madaniyat va mehnat ko‘nikmalarini o‘zlashtirishi, hayotiy tajriba asosida jamiyatda o‘zining munosib o‘rnini egallashi, salohiyati va gnoseologik dunyoqarashining shakllanishida pedagog shaxsi, uning kasbiy mahorati muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga, yoshlarda davr talabidan kelib chiquvchi yangi masala va muammolarni yechish uchun zarur bo‘ladigan sifatlarni shakllantirish pedagogik faoliyat sohasining ustuvor vazifasi hisoblanadi. Buning uchun, avvalo, pedagogning o‘zida yangicha bilim berish, o‘zgarib boruvchi mehnat va hayot sharoitlariga muvofiq ijodiy faoliyat bilan shug‘ullana olish ko‘nikmalari tarkib topgan bo‘lishi lozimligini taqozo qilmoqda..

Gnoseologik yondashuv asosida bo‘lajak kasbiy ta’lim o‘qituvchilarini kasbiy faoliyatga tayyorlash jarayonini rivojlantirishga doir ilmiy izlanishlarimiz davomida tadqiqot muammosini hal qilish kasbiy ta’lim sifati hamda samaradorligini oshirishga bag‘ishlangan ilmiy tadqiqot ishlarini tahlil qilib, o‘rganib chiqish taqozo etiladi. Shuningdek, kasbiy ta’lim o‘quvchilarini kasbiy faoliyatga tayyorlashda bilim, ko‘nikma, malakalarini zamonaviy talablarga mos holda shakllantirish, bugun mamlakatimiz ta’lim tizimida innovatsion texnologiyalarga asoslangan ta’lim-tarbiya tizimini takomillashtirish, uning milliy zaminini mustahkamlash, kasbiy ta’limda innovatsion texnologiya va yangi metodlardan foydalanish muammolari bo‘yicha mamlakatimiz pedagog olimlari tomonidan olib borilgan ilmiy tadqiqot ishlari tahlil qilindi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Xususan, akademik R.X.Djurayev tomonidan olib borilgan ilmiy-fundamental tadqiqot ishlarida mehnat va kasb ta’limi sohalari bo‘lajak o‘qituvchilarini kasbiy tayyorlashning nazariy-metodik jihatlari tadqiq qilgan. Shuningdek, olim shaxsning kasbiy rivojlanishining quyidagi bosqichlarni ajratgan: kasbiy tayyorgarlik, kasbiy moslashish, kasbga ega bo‘lish va mahorat ekanligini, aynan kasbiy tayyorgarlik oliy ta’lim muassasasidagi o‘qitishning bosh maqsadi hisoblanib, kasbiy tayyorgarlikning muhim vazifasi mutaxassisda kasbiy muhim sifatlarning tizimini shakllantirish hisoblanishini, unda intellektual sifatlar belgilovchi o‘rinni egallashini ta’kidlaydi [4].

Sh.E.Qurbonovning ilmiy tadqiqot ishlarida shaxsning kasbiy qarashlarini oshirish masalalari, ta’limni insonparvarlashtirish tamoyilini amalga oshirish asoslari hamda ta’lim sifatini ta’minlay olish omillari ko‘rsatib berilgan. Ta’limning maqsadi – bu muayyan ta’lim jarayonining oxirida ta’lim oluvchi tomonidan o‘zlashtirilishi lozim bo‘lib, hosil qilinishi kerak bo‘lgan bilim, xatti-harakat va bir-biri bilan uzviy bog‘liq bo‘lgan amaliy topshiriqni o‘z vaqtida bajara olish qobiliyati, shaxsiy qarashlari, xulqini belgilashdan iborat. O‘quv maqsadi, natijalarni belgilay olishda aniq o‘lchanadigan, aniq amalga oshiriladigan, erishish lozim bo‘lgan imkoniyatlarning inobatga olinishi ta’kidlab o‘tiladi [5].

A.R.Xodjabayev o‘zining ilmiy izlaniishlarida hozirgi paytdagi o‘qitishni tashkil etish shakli mustaqil o‘rganish ko‘nikmasini shakllantirmasligi, ta’lim oluvchilarning shaxsini rivojlantirishga salbiy ta’sir ko‘rsatib, ularning keyingi bosqichlarda o‘qishni davom ettirish xohishini kamaytiradi deb ta’kidlaydi. Binobarin, o‘qitish jarayonida talabalarda kasbiy bilim va ko‘nikmalardan tashqari, texnik masalalarni yechishning evristik usullaridan foydalanish ko‘nikmalari, shuningdek, yaratuvchi shaxsining quyidagi sifatlari shakllangan bo‘lishi zarurligi: yaratishga ichki ehtiyoj, fikrlashning moslashuvchanligi, harakatchanlikning yuqori darajasi, ya’ni, kuchni bir joyga to‘play olishga qobiliyatlilik va fikrlash jarayonlarini boshqarish ko‘nikmasi shakllanishi zarurligini qayd etadi [6].

N.A.Muslimovning o‘zining ilmiy izlanishlarida, innovatsion faoliyat, ishlanmalar yaratish, tajribasinov ishlari olib borish, fan-texnika yutuqlaridan foydalanish asosida yangi texnologik jarayon yoki yangi takomillashtirilgan mahsulot yaratishdan iborat. Pedagogning innovatsion faoliyati quyidagilar bilan belgilanadi:

– yangilikni qo‘llashga tayyorgarligi;
– pedagogik yangiliklarni qabul qilishi;
– novatorlik darajasi;
– kommunikativ qobiliyatning rivojlanganligi;
– ijodkorligi.

Tadqiqot metodologiyasi. Innovatsion faoliyat – yangi ijtimoiy talablarning an’anaviy me’yorlarga mos kelmasligi yoki yangi shakllanayotgan g‘oyalarning mavjud g‘oyalarni inkor etishi natijasida vujudga keladigan majmuali muammolarni yechishga qaratilgan faoliyat.

Tahlil va natijalar. Innovatsion faoliyat pedagogning ruhiy, aqliy, jismoniy kuchini ma'lum maqsadga yo'naltirish asosida nazariy bilim, amaliy ko'nikma va malakalarni egallash, amaliy faoliyatni nazariy bilimlar bilan to'ldirib borish, bilish, kommunikativ nutq va tashkilotchilik mahoratini rivojlantirishni talab etadi [7].

O'quv jarayonlarini loyihalashtirishda ta'limning mazmunini, ta'lim maqsadi, kutilayotgan natijani to'g'ri belgilay olish, ta'lim metodlari, shakllari, vositalarini to'g'ri tanlay bilish, ta'lim oluvchilarning bilim, ko'nikma, malakalarini baholashni aniq mezonlari oldindan yaratilgan, mashg'ulotga ajratilgan ma'lum vaqt ichida ularni to'g'ri amalga oshira olish, bir-biri bilan uyg'unlashuviga e'tiborni qaratish maqsadga muvofiq ekanligi ko'rsatib o'tilgan

Xulosa va takliflar. Shunday qilib, insonning bilishi rivojlanib boruvchi, faol jarayondir. Bu, avvalo, jamiyatda yangi ehtiyojlarning tug'ilishi, tegishli ravishda amaliyotning rivojlanishi va takomillashuvi bilan belgilanadi. Bo'lajak pedagoglarining gnoseologik-kompetentlik darajasini rivojlantirish muammosi bo'yicha ilmiy bilimlarning yetishmasligi, shuningdek, gnoseologik-kompetentligini samarali rivojlantirishning asosiy shartlaridan iboratdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

(1). O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 7-noyabrdagi "O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi №PF-6108-farmoni. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi. https://lex.uz/

(2). O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 31-dekabrdagi "Malakalarni baholash tizimini tubdan takomillashtirish va mehnat bozorini malakali kadrlar bilan ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4939-qarori, https://lex.uz/docs/5203490

(3). O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 30-sentabrdagi 616-sonli "Kasbiy malaka va bilimlarni rivojlantirish tizimini yanada takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi. https://lex.uz

(4). Джураев Р.Х. Применение инновационных технологий в образовании. Science and innovation. International scientific journal, Toshkent, 2022, № 3, с. 775–790.

(5). Qurbonov Sh., Seytxalilov E. Ta'lim sifatini boshqarish. T., "Turon-Iqbol", 2006, 592-bet.

(6). Xodjaboyev A.R., Xusanov I. Kasbiy ta'lim metodologiyasi. Toshkent, "Fan va texnologiya",2007, 192 b.

(7). Н.А.Муслимов, М.Усмонбоева, Д.Сайфуров, А.Тўраев. Инновацион таълим технологиялари. Ўқув-методик қўлланма, Тошкент, 2015, "Инновацион ривожланиш", 16–17-бетлар.

(8). Хидирова Д.З. Развитие проектной компетентности студентов в образовательном процессе. " Среднее профессиональное образование", Москва, 2021, с. 51–53.

(9). Xidirova D.Z. Pedagogik jarayonni loyihalashning zarur ahamiyati. "Pedagogika", Toshkent, 2022, 50–54-betlar.

(10). Д.З.Хидирова. Развитие проектной компетентности студентов в образовательном процессе. "Среднее профессиональное образование", 2021, с. 51–53.

(11). Xidirova D., Muradov S. O'zbekiston Respublikasi hududida seysmoaktiv hududlar va zilzilaning xavfliligi. Innovative Development in Educational Activities. 2024, T. 3, №. 2, с. 167–172.

(12). K.D.Zayniddinovna. The Importance of the Design of the Pedagogical Process in Improving the Quality of Education. Journal of Pedagogical Inventions and Practices 7, 2022, p. 261–266.

(13). Д.З.Хидирова. Олий касбий таълимда педагогик технологияларини лойиҳалаш – ўқув масадига эришиш омили сифатида. "Kasb-hunar ta'limi", 2 (0109), 2022, 149-бет.

Atiyazov Saparbay Jumamuratovich (Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat Pedagogika instituti "O'zbek tili" kafedrasi o'qituvchisi)

MORFOLOGIYA VA SINTAKSISNI BOG'LAB O'QITISH ONA TILINI O'QITISHNING MUHIM PRINSIPI SIFATIDA

Annotatsiya. *Ushbu maqolada morfologiya va sintaksisni bog'lab o'qitish metodikasi va ahamiyati, ushbu sohani qay tarzda o'qitish haqida ma'lumot berilgan. Bundan tashqari, so'z turkumlarini o'qitish metodikasi bo'yicha amaliy misollar va mashqlarni interfaol usullardan foydalangan holda taqdim etish haqida so'z boradi.*

Kalit so'zlar: *so'z turkumlari, sintaksis, metodika, interfaol usullar, til, ta'lim, pedagogika.*

ОБУЧЕНИЕ МОРФОЛОГИИ И СИНТАКСИСУ КАК ВАЖНЫЙ ПРИНЦИП ОБУЧЕНИЯ РОДНОМУ ЯЗЫКУ

Аннотация. *В статье представлена информация о методологии и важности преподавания морфологии и синтаксиса в совокупности, а также о том, как преподавать эту область. Кроме*